INVESTITSION RISKLARNI BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI VA ULARNING INVESTITSIYA SAMARADORLIGIGA TA'SIRI

Doniyev Shahob O'tkir o'g'li
Qarshi Davlat Universiteti, Iqtisodiyot fakulteti,
Iqtisodiyot yo'nalishi 2-bosqich talabasi
E-mail: shahobdoniyev@gmail.com
ORCID: 0009-0007-8616-8144

Annotatsiya. Ushbu maqolamizda investitsion risklarni baholashning nazariy asoslari hamda ularning investitsiya samaradorligiga ta'siri tahlil qilingan. Hozirgi globallashuv va iqtisodiy beqarorlik sharoitida investitsion faoliyatni samarali tashkil etishda risklarni aniqlash, baholash va boshqarish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tadqiqotlarimiz natijalari investitsiya siyosatini shakllantirishda, korxonalarning investitsion faoliyatini rivojlantirishda hamda moliyaviy risklarni boshqarishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar. Investitsion risk, investitsiya samaradorligi, risklarni baholash, diversifikatsiya, CAPM modeli, investitsiya siyosati, moliyaviy risk, investitsion loyihalar, risk menejmenti.

Abstract. This article analyzes the theoretical foundations of investment risk assessment and their impact on investment efficiency. In the current context of globalization and economic instability, identifying, assessing, and managing risks is becoming increasingly important for the effective organization of investment activities. The results of our research are of great scientific and practical importance in forming investment policy, developing the investment activities of enterprises, and managing financial risks.

Keywords. Investment risk, investment efficiency, risk assessment, diversification, investment policy, financial risk, investment projects, risk management.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические основы оценки инвестиционных рисков и их влияние на эффективность инвестиций. В нынешних условиях глобализации и экономической нестабильности выявление, оценка и управление рисками играют важную роль в эффективной организации инвестиционной деятельности. Результаты наших исследований имеют важное научно-практическое значение при формировании инвестиционной политики, развитии инвестиционной деятельности предприятий и управлении финансовыми рисками.

Ключевые слова. Инвестиционный риск, эффективность инвестиций, оценка рисков, диверсификация, инвестиционная политика, финансовый риск, инвестиционные проекты, риск-менеджмент.

Kirish. So'nggi yillarda jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, xalqaro moliyaviy bozorlardagi o'zgaruvchanlik hamda iqtisodiy noaniqliklarning ortib borishi natijasida investitsion faoliyat bilan bog'liq bo'lgan risklarni chuqur tahlil qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Har qanday investitsion faoliyat ma'lum darajadagi risk bilan chambarchas bog'liq bo'lib, investorlar tomonidan kutilayotgan daromadning olinmasligi yoki moliyaviy yo'qotishlarga duch kelish ehtimoli mavjudligini anglatadi. Shu sababli investitsion risklarni baholash va ularni samarali boshqarish zamonaviy iqtisodiyotning muhim ilmiy va amaliy muammolaridan biri hisoblanadi.

Investitsion risklarni baholash investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini aniqlashda, kapital qo'yilmalarni optimal yo'naltirishda hamda investorlarning strategik qarorlarini qabul qilishida muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, iqtisodiy beqarorlik, inflyatsiya darajasining o'zgarishi, valyuta kurslaridagi tebranishlar va moliyaviy bozorlardagi yuqori o'zgaruvchanlik sharoitida risklarni ilmiy asosda baholashning ahamiyati yanada ortib bormoqda.

Bugungi kunda investitsion risklarni baholashda an’anaviy usullar bilan bir qatorda zamonaviy moliyaviy va ekonometrik modellar keng qo‘llanilmoqda. Jumladan, CAPM modeli, Value at Risk (VaR), stress-testing va diversifikatsiya usullari investitsion qarorlarning samaradorligini oshirishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu usullar orqali investorlarning ehtimoliy yo‘qotishlarini oldindan prognozlash, risk darajasini minimallashtirish hamda investitsiya portfelining barqarorligini ta’minlash imkonini beradi.

Bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotida investitsiya muhitini yanada yaxshilash, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va kapital bozorini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida investitsion risklarni chuqur o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu nuqtayi nazardan olib qaraydigan bo‘lsak, investitsion risklarni baholashning zamonaviy usullarini ilmiy hamda amaliy jihatdan tadqiq etish va ularning investitsiya samaradorligiga ta’sirini aniqlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Xuddi shu maqsadda, mazkur maqolamizning asosiy maqsadi ham aynan investitsion risklarni baholashning zamonaviy usullarini izchil tahlil qilish, ularning investitsiya samaradorligiga ta’sirini aniqlash hamda risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ma’lum ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. So‘nggi yillarda investitsiyalar hamda iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlik hamda investitsion risklar bo‘yicha ko‘plab ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar olib borilmoqda. Albatta iqtisodiy o‘sish bevosita investitsiyalar bilan bog‘liq jarayon ekanligini hamda investitsiyalarda ham o‘z o‘rnida risklar mavjudligi kundek ravshan holat hisoblanadi. Xuddi shunday holatlarda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni oldini olish hamda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash ustuvor vazifa hisoblanadi. Xuddi shu maqsadda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentinig 2025-yil 18-dekabrdagi **“Kapital bozorida investitsiya muhitini yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”**gi **PF-254-sonli Farmon**[1]larining imzolanishi investitsiya faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, investitsion jozibadorlikni oshirish hamda investitsoin risklarni oldini olishni ta’minlashda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Ushbu qonun ijrosi asosida bir qator amaliy vazifalar belgilab olinib, izchil ravishda amalga oshirilmoqda.

Tadqiqiqot metodlari. Maqolamizda yoritilayotgan mavzuni tadqiq qilish jarayonida tizimli yondashuv, tadqiqotning mantiqiy va taqqoslash usullari, kompleks yondashuv, CAPM modeli tahlili, induksion va deduksion usullar, SWOT tahlili, diversifikatsiya usullari, ko‘p variantli prognoz, kuzatishlar hamda statistik tahlil, sifat hamda miqdor tahlili va shu kabi bir qator tadqiqot usullaridan foydalanilgan. Ushbu usullar orqali o‘rganilayotgan soha har tomonlama tadqiq qilinib, yakuniy xulosalar berilgan.

O‘tkazilgan tahlillar va erishilgan natijalar. Mazkur tadqiqotlarimiz davomida investitsion risklarni baholashning zamonaviy usullari hamda ularning investitsiya samaradorligiga ta’sirini iqtisodiy hamda statistik jihatdan tahlil qildik. Tadqiqot jarayonida korxonalarning investitsion faoliyatida uchraydigan asosiy risk omillari, xususan, moliyaviy risk, bozor riski, inflyatsion risk, foiz stavkasi riski hamda likvidlilik risklari alohida o‘rganildi. Shu bila birga, investitsion qarorlar qabul qilishda qo‘llaniladigan CAPM modeli ham tahlil qilinib, ularning iqtisodiy samaradorligi baholandi. Tadqiqot natijalari asosida investitsion risklarni samarali boshqarish uchun quyidagi amaliy mexanizmlar taklif etishimiz mumkin:

[1] https://lex.uz/uz/docs/-7932083 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.12.2025 yil sanasidagi PF-254-sonli Farmoni



1-rasm. Investitsion risklarni samarali boshqarishning amaliy mexanizmlari[2]

Tahlillarimiz natijasida investitsion risklarni oldindan aniqlash va ularga baho berish investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishdagi eng muhim omillardan biri ekanligi aniqlandi. O‘tkazilgan tadqiqotlar davomida diversifikatsiya usulidan foydalangan korxonalarda investitsion yo‘qotishlar darajasi sezilarli kamaygani va investitsiya portfelining rentabelligi oshganligi kuzatilgan. CAPM modeli asosida olib borilgan hisob-kitoblar investitsiya aktivlarining kutilayotgan daromadliligi va risk darajasi o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Yuqori riskli investitsion loyihalarda kutilayotgan daromad darajasi yuqori bo‘lishiga qaramay turib, ularning barqarorligi pastroq ekanligini ham aniqladik. Shu tufayli investitsion qarorlar qabul qilishda risk va daromad o‘rtasidagi muvozanatni saqlash muhimligi ham asoslab berildi. Ayniqsa, iqtisodiy beqarorlik sharoitida tashqi omillar ta’sirining kuchayishi investitsion risklarni chuqur baholash zaruratini oshirishi aniqlandi.

Bundan tashqari, tadqiqotlarimiz natijalariga ko‘ra investitsion risklarni baholashda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt elementlaridan foydalanish samaradorlikni sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatdi. Zamonaviy analitik platformalar orqali katta hajmdagi moliyaviy ma’lumotlarni tezkor qayta ishlash, bozor kon’yunkturasidagi o‘zgarishlarni prognozlash hamda ehtimoliy risklarni oldindan aniqlash imkoniyati kengayib bormoqda. Bu esa investorlarga investitsion qarorlarni yanada asosli va aniq qabul qilishga yordam bermoqda. Ayniqsa, real vaqt rejimida olib borilgan monitoring imkoniyati investitsion loyihalarning moliyaviy barqarorligini ta’minlashda muhim omil sifatida namoyon bo‘lib kelmoqda.

Shuni ham ta’kidlash kerakki, olingan natijalarga qaraydigan bo‘lsak investitsion risklarni samarali boshqarayotgan korxonalarda kapital rentabelligi va investitsion faollik darajasi nisbatan yuqoriroq ekanligi aniqlandi. Risklarni baholash tizimi mukammal yo‘lga qo‘yilgan korxonalar tashqi iqtisodiy beqarorlik sharoitida ham investitsion barqarorlikni saqlab qolishga muvaffaq bo‘lmoqda. Bu holat investitsion risk menejmentini korxona strategik boshqaruvining ajralmas qismi sifatida rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi. Natijada, investitsion risklarni ilmiy asosda boshqarish nafaqat moliyaviy yo‘qotishlarning oldini olishga, balki korxonalarning uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishini ta’minlashga ham xizmat qilishi asoslab berildi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, investitsion risklarni baholash hamda ularni samarali boshqarish zamonaviy iqtisodiyot sharoitida investitsion samaradorlikni ta’minlovchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Tadqiqotlarimiz natijalari shuni ko‘rsatdiki, investitsion faoliyatda risklarni oldindan aniqlash, ularni tahlil qilish va samarali boshqarish

[2] Muallif ishlanmasi

investitsiya loyihalarining moliyaviy barqarorligini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, globallashuv jarayonlari, bozor kon'yunkturasining tez o'zgarishi hamda iqtisodiy noaniqliklar kuchayib borayotgan hozirgi davrda risklarni ilmiy asosda baholash investitsion qarorlarning aniqligi va ishonchliligini oshiradi. Shu bilan birga, risk va daromadlar o'rtasidagi mutanosiblikni saqlash ham investitsiya samaradorligini oshirishning asosiy shartlaridan ekanligi ham asoslab berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.12.2025 yil sanasidagi PF-254-sonli Farmoni. Manba: https://lex.uz/uz/docs/-7932083

2. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. Manba: https://lex.uz/uz/

3. O'zbekiston Respublikasi Milliy Stattistika Qo'mitasi ma'lumotlari. Manba: https://stat.uz/uz/

4. O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo'mitasi investitsitya ma'lumotlari. Manba: https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments

5. Aqilov A., Rahimov N. Xorijiy investitsiyalar va milliy iqtisodiyot rivoji. - Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2019.

6. OECD. International Direct Investment Statistics. - Paris, 2022.

7. Ayupov, R.X., Baltabaeva, G.R. (2018). Raqamli valyutalar bozori: innovatsiyalar va rivojlanish istiqbollari. –T: Fan va texnologiya. 172 b.

8. https://www.oecd.org/investment/statistics.htm

9. Bekmurodov A.Sh., Jo'rayev A.B. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va ularning milliy iqtisodiyotga ta'siri. – Toshkent: "Iqtisodiyot", 2023. – 212 b.

10. Bakiyeva, I. (2025). O'zbekistonda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar dinamikasi va ularning iqtisodiy o'sishga ta'siri (2016-2025-yillar tahlili). Qo'qon Universiteti xabarnomasi, 16, 179–183. Manba: https://herald.kokanduni.uz/index.php/public_html/article/view/1277